

SOCIOPRAGMATIC FEATURES OF THE LANGUAGE IDENTITY "MOTHER"

Markhabo Egamberdievna UMURZAKOVA

Associate Professor, PhD

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

ONA LISONIY SHAXSINING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Marhabo Egamberdiyevna UMURZOQOVA

PhD, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ МАТЕРИ

Мархабо Эгамбердиевна УМУРЗАКОВА

Доцент, PhD

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан umurzakovamarkhabo@gmail.com

For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Umurzakova M.E. Ona lisoniy shaxsining sotsiopragmatik xususiyatlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 3. — B. 53-64.

<https://doi.org/10.36078/1720428300>

Received: April 02, 2024

Accepted: June 17, 2024

Published: June 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Researching the manifestation of language identity types in a literary text is one of the important issues of linguopersonology. Language identity types differ from each other in several signs, such as age, gender, nationality, territorial, and social affiliation. In a work of art, the writer must find and apply words corresponding to each social status of the individual. The speech of the representative of each language reflects his views on the universe and his attitude to reality. At the same time, he also carries the signs of the culture to which he belongs. Information about customs, faith, and level of knowledge is also manifested in his speech. The article deals with the language identity of a mother and its sociopragmatic features in the literary text. The mother's language identity also is represented in the social status of the spouse, neighbor, mother-in-law, and patient. The reflection of such qualities as compassion, trustworthiness, naivety, and kindness is inherent in Uzbek mothers.

Keywords: linguistic personality; social status; social role; pragmatic purpose; pragmatic tactics; speech act; speech strategy.

Annotatsiya. Muayyan tilda so'zlashuvchi shaxs shu tilga xos bo'lgan belgilarni o'ziga xos tarzda nutqida namoyon qiladi. Til imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olishi esa uning lisoniy bilimlari natijasi sifatida yuzaga keladi. Badiiy matnda lisoniy shaxs tiplarining namoyon bo'lishini tadqiq qilish lingvopersonologiyaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Lisoniy shaxs tiplari yoshi, jinsi, millati, hududiy, ijtimoiy mansubligi kabi bir qancha belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. Lisoniy shaxs bir paytning o'zida bir necha ijtimoiy maqomda bo'lishi mumkin. Yozuvchi badiiy asarda uning har bir ijtimoiy maqomiga mos so'zlarni topib qo'llashi, uning xarakter qirralarini lisoniy birliklar yordamida aks ettirishi lozim.

Lisoniy shaxs nutqida uning olam haqidagi qarashlari, voqelikka munosabati aks etadi. Shu bilan birga o'zi mansub madaniyatning belgilarini ham tashiydi. Urf-odatlar, diniy mansublik, e'tiqodi, bilim darajasi haqidagi ma'lumotlar ham nutqida namoyon bo'ladi. Har bir lisoniy shaxsning voqelanishida yozuvchining til imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati, kuzatuvchanligi muhimdir. Maqolada badiiy matnda ona lisoniy shaxsining voqelanishi, uning sotsiopragmatik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Ona lisoniy shaxsining bir paytda turmush o'rtoq, qo'shni, qaynona, bemor ijtimoiy maqomida bo'lishiga, ular o'rtasidagi umumiyliklar va xususiyliklarga ham e'tibor qaratilgan. O'zbek onalariga xos kuyunchaklik, ishonuvchanlik, soddadillik, bolajonlik kabi xislatlarning aks ettirilishi bir obraz misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: lisoniy shaxs; ijtimoiy mavqe; ijtimoiy rol; pragmatik maqsad; pragmatik taktika; nutqiy akt; nutqiy strategiya.

Аннотация. Человек, говорящий на определенном языке, по-своему проявляет в своей речи признаки, характерные для этого языка. То, в какой степени он может использовать языковые возможности, является результатом его языковых знаний. Исследование проявления языковых типов личности в художественном тексте является одним из важных вопросов лингвоперсонологии. Языковые типы личности отличаются друг от друга по нескольким признакам, таким как возраст, пол, национальность, территориальная и социальная принадлежность. Языковая личность может находиться в нескольких социальных статусах одновременно. Писатель должен найти и использовать в художественном произведении слова, подходящие к каждому его социальному статусу, и отразить черты своего характера с помощью языковых единиц. Речь языковой личности отражает ее взгляды на мир, ее отношение к действительности. В то же время она несет в себе признаки культуры, к которой принадлежит. В ее речи также проявляется информация об обычаях, религиозной принадлежности, вере и уровне знаний. В реализации каждой языковой личности важно умение писателя использовать возможности языка. В статье рассматривается реализация языковой личности матери, ее социопрагматические особенности в художественном тексте. Акцент делается также на том, что языковая личность матери одновременно находится и в социальном статусе супруги, соседки, свекрови, пациентки, а также сходства и особенности между ними. На примере одного образа раскрывается отражение таких качеств, как сострадательность, доверчивость, наивность, доброта, присущих узбекским матерям.

Ключевые слова: языковая личность; социальный статус; социальная роль; прагматическая цель; прагматическая тактика; речевой акт; речевая стратегия.

Kirish

So'z muayyan millatning olam haqidagi tushunchalarini aks ettiruvchi birlik bo'lib, uning vositasida shu til egalari ongida olam haqida shakllangan konseptning eng muhim jihatlari aks etadi. Ona obrazi badiiy adabiyotda muhim sanalib, ona lisoniy shaxsining namoyon bo'lishida so'zni o'z o'rnida topib qo'llash, uning olam haqidagi qarashlarini nafaqat so'z, balki frazemalar, so'z birikmalari, maqol, matal, qarg'ish va olqish so'zlar, murojaat birliklari vositasida berish yozuvchidan mahorat talab qiladi. Har

bir til egasi o'zi mansub millatning qadriyatlari, urf-odatlari, asrlar davomida shakllangan dunyoqarashini, milliy mansublikka xos bo'lgan qirralarni o'zida aks ettiradi. Maqolada ona lisoniy shaxsining sotsiopragmatik xususiyatlari Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi Oychechak opa lisoniy shaxsi misolida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Kommunikativ muloqot insonlar orasida axborot almashinuvining amalga oshish jarayoni bo'lib, bu jarayon bir qancha zaruriy shartlarning bajarilishi bilan ro'y beradi. Lisoniy qobiliyat kommunikativ aloqani ta'minlashda zaruriy shart bo'lsa-da, til egalarining ijtimoiy-madaniy mansubligi, yoshi, millati, shaxsiy sifatlari ham muhim ahamiyatga ega. Sh. Safarov "kommunikantlarning ijtimoiy mavqei va shaxsiy psixofiziologik xususiyatlari bilan bog'liq belgilarning muloqot jarayonidagi ifodasini o'rganish lison va voqelik muammosi ilmiy tahlili uchun muhim" deb hisoblaydi (11, 157). Lisoniy shaxs tushunchasining paydo bo'lishi bilan tilshunoslikda uning tiplarini, o'ziga xos lisoniy belgilarini tadqiq qiluvchi lingvopersonologiya sohasi ham paydo bo'ldi. Rus tilshunosi Y. N. Karaulov lisoniy shaxs tushunchasini tavsiflar ekan, lisoniy shaxs har qanday til egasi bo'la olishini ta'kidlaydi hamda "lisoniy shaxs – umuman shaxs tushunchasining chuqurlashishi, rivojlanishi, qo'shimcha mazmun bilan to'yinganligi", — deya izohlaydi (5, 38). Badiiy matnda lisoniy shaxslarning namoyon bo'lishi haqida so'z yuritir ekan, D. Ashurova ularni muallif obrazi, qahramon obrazi va o'quvchi obraziga ajratadi hamda "bu borada lingvistik tahlilning asosiy vazifasi lisoniy shaxsni u yoki bu darajada aniq ifodalovchi verbal vositalarni, lingvistik belgilarni aniqlashdan iborat" deb belgilaydi (1, 45). O'zbek tilshunosligida badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi X. Yo'ldosheva tomonidan amalga oshirilgan. Tadqiqotchi lisoniy shaxs tushunchasiga alohida to'xtalmagan bo'lsa-da, "badiiy matnda ijtimoiy shaxslar, ularga xos shaxsiy sifatlarning namoyon bo'lishi, nutqning muloqot sharoiti, nutq vaziyati kabi ijtimoiy omillar ta'sirida yaratilishi, muloqot shaklining nutq vaziyati bilan bog'liq holda tanlanishi, badiiy matnda ijtimoiy xoslangan birliklarning faollashuvi masalasiga aniqlik kiritishda muhim ahamiyatga ega"ligini ta'kidlaydi (16, 24). Lisoniy shaxsning namoyon bo'lishida uning ijtimoiy maqomi va roli muhim ahamiyatga ega. "Lisoniy shaxs bir paytning o'zida bir necha rolda bo'lishi mumkin, ammo u qaysi rolda bo'lsa ham, nutqidagi o'ziga xoslik, so'z qo'llashidagi individuallik; o'zgachalik, har bir vaziyatda tilning ifoda imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olishi uning lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xos qirralarini namoyon etadi" (13, 112). Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, dunyo, xususan, o'zbek adabiyotida ona obrazi o'ziga xos talqiniga ega. Tadqiqotchi F. Umarova ingliz va o'zbek adabiyotidagi asarlar misolida ona obrazini qiyoslaydi, ona obrazi haqida so'z yuritir ekan, "ayolning vazifasi nafaqat oila, uy yumushlari bilan chegaralanib qolish, balki ayol jamiyatning bir bo'lagi sifatida ham tasvirlanish holatlari kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bugungi kunda ayolning jamiyat bilan aloqasi kuchayib bormoqda va bu badiiy asarda o'z aksini topmoqda", — deya ta'kidlaydi (12, 159). Bu esa ona obrazining

lisoniy xususiyatlari, uning tom ma'noda lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlashdagi vositalarni tadqiq qilish muhimligini ko'rsatadi.

Tilshunoslikda badiiy matn turlicha yondashuvlar asosida tadqiq qilingan. "Antropotsentrizmning tilshunoslikda alohida paradigma sifatida shakllanishi va bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning dunyo tilshunosligida ko'payib borayotganligi benihoya quvonarli hodisa ekanligi" tilshunos olimlar tomonidan e'tirof etilgan (7, 55). D. Ashurova badiiy matnning "sinergetik hodisa sifatida o'ziga xosligini belgilovchi asosiy xususiyatlarini tavsiflash hamda badiiy matnni tahlil qilish va talqin qilishda har tomonlama yaxlit, integral va fanlararo yondashuv zarurligini" asoslaydi (1, 39).

Muallif asarning ilk sahifasida Oychechak opani *butun oilani bir o'zi* "gah desa qo'liga qo'ndirgan", "o'zi xon, ko'lankasi maydon" deb ta'riflaydi. Yozuvchi qahramonining "aldir-shaldir", "bir qop yong'oq" Oychechakdan turmush o'rtog'i O'tkir akadan ayrilib, ko'rpa-to'shak qilib yotib, omonatini topshirgan, ichi to'la dard bo'lgan ayol qiyofasigacha ishonarli bo'yoqlarda chizadi. Oychechak opa romanda asosan ona obrazida gavdalansa-da, uning o'rni bilan ijtimoiy maqomi o'zgarib turadi.

Y.N. Karaulov lisoniy shaxs nutqi turli vaziyatlarda uch asosiy ijtimoiy roli — bola, ota-ona, voyaga yetgan shaxs bilan bog'liq degan fikrlarni ma'qullaydi va bu uch asosiy ijtimoiy rolning qanday va kimlar bilan bo'lgan munosabatda o'ynalishini ko'rsatib o'tadi (5, 212). Lisoniy shaxsning yoshi va boshqa xususiyatlari muloqotda ma'lum rol o'ynasa ham, uning namoyon bo'lishi asosan nutqning maqsadini belgilash va lingvistik kommunikativ akti amalga oshirish vositalarini tanlash bilan bog'liq. "Matnning bu tipida ko'pincha turli ijtimoiy sifatlarga ega personajlar ishtirok etishi sababli ularning nutqi ijtimoiylik belgisiga ko'ra bir-biridan farqlanadi" (16, 26). Lisoniy shaxsni belgilovchi omillardan biri gender omili bo'lib, ayol va erkak nutqidagi o'ziga xosliklar, ayol va erkak lisoniy shaxsining belgilari tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan (2, 14, 15).

Lisoniy shaxsni tahlil qilish metodlari

Tadqiqotda tavsifiy, semantik metodlar hamda diskursiv, sotsiopragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani ilk voqealaridayoq Oychechak opa haqiqiy o'zbek ayoli qiyofasida namoyon bo'ladi. Oilada oila a'zolarini o'z yo'rig'iga yurgizadi, yo'liga yurmagan, ona ishongan "kuf-suf"larga tobi yo'q o'g'lini kelinposhsho orqali yo'lga soladi. Shunday tadbirlarni qila olgan ona begona odamlar, ayniqsa, o'zi najot kutib kelgan azayimxon domla oldida so'zini yo'qotib qo'yadi. Yozuvchi bu o'rinda uning ayni ijtimoiy maqomi – bemor, najot qidirib kelgan ayol lisoniy shaxsini tili kalimaga kelmay, bir so'zni qayta-qayta takrorlagan shaxs qiyofasida gavdalantiradi. Oychechak opa ko'pgina sodda qishloq ayollariga o'xshab qiyinchilik, dard, boshga tushgan g'amlarni azayimxon, folbin, tabib kabilarga borib aritishga harakat qiladi. Ularga ishonchi shunday balandki, bu ishonchni kuch bilan oila a'zolariga ham yuqtirishga harakat qiladi.

Ulug'bek Hamdam asarlarida ona lisoniy shaxsi o'zbek millati onalariga xos bo'lgan qiyofalarda namoyon bo'ladi. Yozuvchi ona lisoniy shaxsini gavdalantirishda o'zbek onalariga xos bo'lgan mehribonlik,

kuyunchaklik xislatlarini aks ettiradigan leksik birliklardan foydalanadi. Farzandi uchun har ishga qodir va tayyor onalar obrazi xilma-xil ranglarda ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

X. Yo'ldosheva badiiy matnda muloqot shakllarining tanlanishiga kommunikantlarning ijtimoiy roli hamda yuzaga kelgan nutq sharoiti omili ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi (16, 27). Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, ona ijtimoiy rolidagi personaj nutqi ko'p hollarda erkalash, tanbeh, maslahat xarakterida bo'ladi. "Ota" romanidagi Oychechak opaning o'g'li balog'at yoshidagi yigit bo'lganligi uchun uning nutqida erkalash xarakteridagi nutq uchramaydi, og'li bilan kechgan muloqotni berishda yozuvchi dialoglardan foydalangan. "Dialogik diskursda ifodalilik, ekspressivlik, elliptiklik shakllari ko'rinib turadi. Ular kommunikant dunyosi va xarakterini ochishda, individual obraz yaratishda, ularning ijtimoiy xulqini aniqlashda sotsial-nutqiy xarakteristika hisoblanadi" (10, 16).

O'zbek lingvomadaniyatida to'y yetakchi konsept sanaladi. Buni o'zbek tilida "topganing to'yga buyursin", "boshing to'ydan chiqmasin", "so'yganimiz qo'y bo'lsin, yeganimiz to'y bo'lsin", "xonadoningizdan to'y-u tomosha arimasin", "to'ylarga yetkazsin" kabi olqishlarning nutqda faol ishlatilishidan ham bilsa bo'ladi. "Ota" romanida Oychechak opaning yolg'iz o'g'li Po'latdan urushga ketish xabarini eshitishi bilan qilgan birinchi qarori ham uni uylantirish bo'ladi. M. Hakimov kommunikativ niyatni ifodalashda strategiya pragmatikaning bosh masalasi ekanligini ta'kidlar ekan, ichki maqsadni bayon qilish uchun uslub tanlash muhimligini, aynan shu nuqtada pragmatika uslubshunoslik bilan hamkorlik qilishini ta'kidlaydi. Tilshunos olim qayd etganidek, fikr ifodalashda uslub va usul so'zlovchining kommunikativ strategiyasini belgilaydi, chunki "faqat semantik va grammatik ilmlarni bilish bilangina emas, balki hayotiy qonun-qoidalarni bilish va unga amal qilish natijasida kommunikativ strategiya mahoratiga ega bo'lish mumkin" (3, 22). Badiiy matnda ham kommunikativ niyatni ifodalash strategiyasini to'g'ri tanlash lisoniy shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashda muhim omil sanaladi. "Ayol muloqot uslubi subordinatsiyali yoki ijtimoiy jihatdan kerakli xulq-atvor strategiyalari bilan tavsiflangan shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu ayolning ko'proq sezgiga tayanishini ko'rsatadi" (9, 19).

— *Sevgan qizim bor degan eding, to'y qilamiz!.. — dedi tomdan tarasha tushgandek* (4, 26).

Ota — urushda, u qaytgach to'y qilamiz degan shirin orzularga zid ravishda to'satdan to'y qilish haqidagi qaror o'zbek ayoli lisoniy qiyofasini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. — *To'y qochib ketmasmish! Qochib ketadi, ko'rmayapsanmi, hamma narsa qochib yo'q bo'lib ketayotgan zamonda turibmiz, bolam! Bu zamonni tegirmoni tinimsiz aylanib yotibdi! Aylanib hammani, katta-yu kichikni, yaxshi-yu yomonni maydalab yotibdi-yu, to'ying nima bo'пти* (4, 26). Bu parchada qo'llanilgan gaplar onaning ichki holati, qo'rquvlari, og'riqlari, farzand o'stirish davrida uning to'yini ko'rishdek qilingan buyuk orzusining oz bo'lsa-da ushalishini ko'rib qolish niyatini aks ettirishga xizmat qilgan. O'zbeklarda to'y konsepti bu to'kin dasturxon, yuzlab mehmonlar, karnay-surnay, kelin-kuyov baxti uchun qilinadigan yana ko'pgina urf-odatlar bilan bog'liq. Ammo Po'latning to'yi, o'n kishilik bitta osh bilan o'tdi. Muallifning "Endi shu to'y tinchlik davrida bo'lsa-chi, xuddi shu odamlar og'zi qolib keti bilan

kulmasmidi” izohi onaning qilgan ishi voqelik yuz bergan davr uchun mosligiga, shu sabab *eshitgan quloq to‘yni miq etmay* qabul qilgani to‘g‘riligiga ishora qiladi. Onaning to‘y haqidagi qarashlari, to‘y qilib quvonchini elga yoyish o‘zbek onasiga xos buyuk orzu ekanligi, o‘zbeklarga xos mehmondo‘stlik stereotipining namoyon bo‘lishini nevarasining beshik to‘yi voqealari tasvirida ham ko‘rish mumkin. Shuningdek, o‘zbeklarga xos qo‘shnichilik, qo‘shnining boshiga ish tushganda qayg‘urish, hamdard bo‘lish kabi fazilatlar ham shu voqealar tasvirida beriladi. Oychechak opa musulmon ayol sifatida qo‘shni ayolning o‘limiga achinadi, ammo yillar davomida kutgan quvonchining yo‘q bo‘lishida qo‘shni ayolning o‘limi sabab bo‘lishi uni norozi qiladi.

O‘lsin o‘lmay! — deya tutaqdi Oychechak opa. — O‘lishga topgan vaqtini qarang bularni! ..

— Ayb bo‘ladi, xotin, ayb! — dedi O‘tkir aka xotinining ko‘ziga tik qarab.

— He, aybi boshidan qolsin! Men hali o‘ynaganim yo‘q! Nevaramning to‘yida o‘ynayman deb niyat qilganman! Bir marta yaxshilab chalsin, mundoq davra aylanay, ene, mayli bas qilsinlar! (4, 81). Keltirilgan parchadagi *o‘lsin o‘lmay, aybi boshidan qolsin* birliklari onaning ayni damdagi norozilik holatini berishda muhim ahamiyatga ega. Odatda, birovning o‘limi haqidagi xabar eshitguvchida achinish, hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otadi. O‘zbeklarda, xususan, musulmonchilikda o‘lgan odamni yana o‘lsin deyish axloqqa zid. Oychechak opaning ayni damdagi javobi uning psixologik holatiga mos, bunday ifoda “lingvopragmatika nuqtayi nazaridan izohlashni talab etadi (9, 20). O‘n besh yildan ortiq kutilgan nabiraning beshik to‘yining to‘xtatilishi alami uning boshqalarga achinish hissidan ustun keladi. Qo‘llanilgan birliklar so‘zlovchining ayol ekanligiga, yoshiga, ijtimoiy mavqeyiga ishora qiladi. Norozilik bildirsa-da, Oychechak opa erining so‘zini ikki qilmaydi, ammo ichidagini ham sirtiga chiqarib, alamidan chiqadi, bu holat uning tabiatiga, xarakteriga mos bo‘lganligi uchun ham ona lisoniy shaxsining o‘ziga xos qirralarini namoyon etgan.

Yozuvchi asarda ona lisoniy shaxsining voqelanishida subyektiv baho shakllaridan ham mahorat bilan foydalangan. Subyektiv baho ham pragmatikaning muhim masalalaridan biri bo‘lib, turli fonetik, morfologik, sintaktik birliklar vositasida yuzaga chiqadi.

Voy sho‘rimiz quridi, O‘g‘iloy, sho‘rimiz quribgina qoldi. Nevaraginam yer-u ko‘kda yo‘q (4, 92). Keltirilgan misollardagi *-gina* subyektiv baho shakli orqali qahramonning qo‘rquvi, kutilmagan tashvishdan esankirab qolishini aks ettirish bilan birga ayol jinsiga mansubligiga, buvi ijtimoiy maqomida ekanligiga ishora qilgan.

Asarda ona lisoniy shaxsini voqelantirishda psixologik holat, ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar, gina-kudurat, araz, po‘pisani ifodalovchi birliklardan foydalanilgan. Bu birliklar esa o‘z o‘rnida pragmatik strategiyaning anglanishida vosita bo‘lib xizmat qilgan. *Bir yoqdan, bolam, bu ish ajab bo‘pti, xo‘p bo‘pti. Mana, endi onasi o‘pmagan, bir etak bola tug‘ib beradigan xotin obermasam Oychechak otimni boshqa qo‘yaman (4, 68).*

Keltirilgan mikromatndagi *ajab bo‘pti, xo‘p bo‘pti, Oychechak otimni boshqa qo‘yaman* birliklari nutq egasining ichki kechinmalari — yaxshi

ko'rgan, ammo farzand ko'rmagan kelinini ko'zi qiymay yurgan, ayni damda uning ketganidan quvongan, shu yo'l bilan muammoning hal etilishiga ishongan onaning xursandligini aks ettirish bilan birga, uning shaxsiy sifatleri haqida ham ma'lumot beradi. *Otini boshqa qo'yish* birikmasi tutgan yeridan kesadigan, aytganini o'tkazadigan ayol ekanligiga ishora qiladi. Asar davomida eri va o'g'li uning izmiga yurmasa-da, ko'nglini og'ritmaslik uchun ham xo'p deyishi, keyin bilganlaridan qolmasliklari ishonarli tasvirlangan. Nutqiy muloqotning amalga oshishida kommunikativ strategiya muhim sanaladi. U nutqqacha yoki nutq jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Quyidagi matnda kommunikativ strategiya oldindan rejalashtirilganligini ko'rish mumkin.

— *Unda qidiravering!* — *Po'lat onasining fe'lini yaxshi bilgani uchun miyig'ida kulib qo'ydi.*

— *A? Rostdanmi? Voy o'rgilay o'zimi Po'latjonimdan! Shuni oldinroq aytmay-sanmi, uying to'la bola bo'lardi hozir.*

— *Aya, ayajon, xotin qidiring demayapman, o'zizga yangi ism qidiring deyapman* (4, 68).

Keltirilgan matnda *qidiravering* fe'li pragmatik mazmun ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Ona o'g'li uchun yangi xotin qidirishni maqsad qilgan, o'g'il esa ushbu fe'l orqali o'zining boshqaga uylanmasligiga ishora qiladi. Ona o'g'lining hazilidan ranjimaydi, muloqotdan ko'zlangan maqsad uni boshqaga uylantirish taklifiga ko'ndirish uchun bundan ham bir vosita sifatida foydalanadi. Oychechak opa o'g'lining farzand ko'rishini juda xohlaydi, hamma onalar kabi uning farzandsizligida kelinini aybdor deb biladi. Shuning uchun kelinining ketganidan foydalanib, o'g'lini boshqasiga uylantirish haqidagi niyatlarini oshkor qiladi.

— *Nima? E-e-e, haziling qursin seni!* — *Oychechak opa yuzini devorga burib, bir zumgina arazlagan bo'ldi, so'ng yana hech narsa bo'lmagandek o'g'liga yuzlandi, — xotiningni shu ketganidan foydalanib qolishing kerak, o'g'lim, issiq tanangga mundoq o'ylab ko'r. Hamma ayb uning bo'ynida bo'pturgan vaqtda tug'mas xotinni kim qaytarib obkellar ekan. Esing joyidami?* (4, 69). Suhbatda kim qaytarib obkellar ekan ritorik so'roq gapi qaytarib olib kelma, olib kelmaysan presuppozitsiyasiga ishora qiladi, shu so'roq gap vositasida ona o'zining voqelikka munosabatini ifodalaydi. D. Ashurova "dialog (monolog, polilog) ham personajning lisoniy shaxsini aks ettiruvchi, shaxsning madaniy va ma'rifiy darajalari, uning individual psixologik xususiyatlari, milliy va kasbiy mansubligi haqida ma'lumot berishning eng muhim vositalaridan biri" ekanligini ta'kidlaydi (1, 46). Quyidagi dialogda onaning e'tiqodi, ishonchi, psixologik xususiyatlari ifodalangan.

Manavinisi O'g'iloy azayimxonni jodulagan tumorlari! — *Po'lat shunday deb burchakda turgan axlat paqirga otdi.*

— *Voy sho'rim! Bolam, nima qilyapsan, esingni yig'! Bas qil!* — *Oychechak opa hapqirib o'rnidan turib ketdi.*

— *Manavinisi Tursun tabibning sassiq alafllari! Manavinisi esa, qorabog'ishli folbinni shaytoniy ezibichkilari!* — *Po'lat uch-to'rt qora-yu sariq yelimxaltalarga o'ralgan o'tlarni jahd bilan axlatpaqirga uloqtirar ekan, onasi kelib qo'ldan tutdi.*

— *Unday qilma bolam, gunoh bo'ladi-ya!* (4, 69). Keltirilgan dialogda ona lisoniy shaxsini shakllantirishda nutqida qo'llanilgan *voy sho'rim*,

gunoh bo'ladi-ya birliklari matndan uzib olinganda ham so'zlovchining ayol ekanligiga, yoshiga, diniy mansubligiga ishora qiladi. Yuklamalarning ta'kid ma'nosini kuchaytirish uchun qo'llanilishi o'zbek ayollari nutqida ko'proq uchraydi, lisoniy shaxsning gender xoslanishida muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Odatda, ona yoshi katta farzand bilan kechadigan muloqotda ko'proq undash, maslahat, buyruq aktlaridan foydalanadi. Buni quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Ona yolg'iz o'g'lining urushga ketish xabarini eshitgach, yig'laydi, dod soladi. Ammo bu tashvish faqat uning boshiga kelmaganini, bu vaziyatdan qochib keta olmasligini biladi, darrov o'zini o'nglaydi. Onaning nutqidagi qat'iylik, buyruq ohangi uning qat'iyatli, og'ir vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan shaxs ekanligini ifodalaydi. *Endi meni eshit o'g'lim, yaxshilab eshit: yo uylanib ketasan o'sha oting ochkur urushga yoki hech qayoqqa bormaysan! Yo 'lingga yotib olamanki, o'ligim ustidan hatlab o'tishingga to'g'ri keladi. Tanla!* (4, 26).

Har bir millatning ayol va erkak jinsiga oid stereotiplari tilda barqaror birikmalar sifatida aks etadi. *“Erkak – oila boshi”, “Erkak bosh, ayol bo'yin”, “Ayol, avvalo, ona”* kabi birliklar o'zbek lingvomadaniyatiga ham xos. Aynan shu stereotiplar o'zbek adabiyotida ota, ona lisoniy shaxsini ifodalashda yozuvchilar e'tiborida bo'lib kelgan. Oychechak opa lisoniy shaxsini voqelantirishda yozuvchi shu jihatlarni ham inobatga olgan. Buni asarda eri O'tkir aka tilidan berilgan tavsif yaqqolroq ochib beradi: *“Biz otanonalar maslahat beramiz, xolos. Ma'qul degan joyini olasan, qolganiga o'zing tadbir qilasan, bolam. Ayangdan achchiqlanma, lov etib yonadi, pus etib o'chadi, ammo ko'nglida kiri yo'q uni. Aldir-shaldir, toza inson ayang”* (4, 71).

Kommunikativ maqsadni oshkor qilmaslik, uning anglanishi uchun qulay vaziyatni kutish, yaratish ham asarda mohirlik bilan ifodalangan. *Men kimman senga, bolam? Qachon senga begona bo'lib ulgurdim? Xotining ketib so'qqabosh bo'lganingni birovlardan eshitay?* (4, 68). Keltirilgan matnda ranjish akti yuzaga kelgan bo'lib, bu aktning yuzaga chiqishida so'roq gaplardan foydalanilgan. So'roq gaplar so'rash akti uchun emas, ranjish aktini yuzaga chiqarish uchun vosita sifatida foydalanilganligini muallif nutqida qo'llanilgan izoh ham to'ldiradi. *“Opa ko'zlari quruq bo'lsa-da, ismi-rasimiga mo'l yengining uchi bilan qovoqlarining ustiga bosib artindi”* (4, 68). *“Muloqot jarayonida ishtirokchilar o'zaro munosabat tengligini ta'minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar”* (13, 148).

U. Hamdam *“Ota”* asarlarida ona lisoniy shaxsini yaratishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratganligini ko'rish mumkin:

1. Nutqda emotsionallikni ifodalovchi birliklar, murojaatda subyektiv baho ifodalovchi so'zlar (*jonim, oppog'im, qo'zichog'im*) hamda undov so'zlarning ko'p qo'llanilishi, his-tuyg'ularining fonografik vositalar yordamida ifodalanishi:

— *Ko'ylagini! O'rgilay, mana* (4, 92).

Senga biron kor-hol bo'lsa, men qandoq chidayma-a-an, a, qandoq chidayman... (4, 24). *Hay, yolg'iz qolgan bolam-ey* (4, 67).

2. Nutqida diniy mansublik, e'tiqod bilan bog'liq so'zlarning, irim-sirim, urf-odatlar bilan bog'liq tushunchalarning ko'p qo'llanilishi.

Unday qilma, bolam, gunoh bo'ladi-ya (4, 69). *Voh, gapingizga farishtalar omin desin* (4, 95). *Ha, bolam, sizlar borsizlar, Ollohimga ming qatla shukr! Lekin otangdan keyin... otangdan keyin, Egamning o'zi kechirsin-u, yashagim kelmay qoldi* (4, 137).

3. Nutqning uslubiy xoslanishi, nutqda pand-nasihatga oid birliklarning qo'llanilishi. *Baribiram-da! Uyingdan uzoqdasan, hamma joyni o'z tosh-u tarozisi, o'z bo'risi bo'ladi, der edi otam* (4, 10). *Sen hadeb do'xtirlaringga ishonavermay, mundoq ota-bobomizdan qolgan eskichaga ham yurib ko'r* (4, 69). *O'shanchun sizga doim aytib yuraman-da, Po'latjon, folga ishonmasayz ham folsiz yurmang, dam soldirishni kanda qilmang, deb!* (4, 98).

D. Niyazova O'. Hoshimov asarlaridagi ona lisoniy shaxsini tadqiq qilar, asosiy belgilar sifatida nutqning emotsionalligi, hissiyotlarga boyligi, ifodaning yumshoqligi, o'dob-axloq me'yorlariga amal qilinishini ko'rsatadi (8, 88). Ta'kidlash kerakki, U. Hamdam va O'. Hoshimov asarlaridagi ona lisoniy shaxsi juda ko'p umumiylikka ega. Buni har ikkala adib ham asarlarida haqiqiy o'zbek ayoli obrazini yaratgani, tasvirlangan voqealar bir davrda yuz bergani bilan izohlash mumkin. Y.N. Karaulov lingvodidaktik va nazariy-lingvistik maqsadlarga muvofiq lisoniy shaxs tuzilishining uch darajasini ajratadi. Bu darajalar:

“verbal-semantik daraja yoki shaxs leksikasi; keng ma'noda tushuniladigan leksika, bizningcha, shaxsning grammatik bilimlar fondini o'z ichiga oladi;

lingvo-kognitiv, “olam manzarasini” aks ettiruvchi individual tezaursi yoki dunyo haqidagi bilimlar tizimi;

pragmatik daraja, motivatsion yoki faoliyat darajasi, shaxsning maqsadlarini aks ettiruvchi, motivlari, munosabati va niyatlari tizimidan iboratdir (5, 238).

Tahlilga tortilgan asardagi ona lisoniy shaxsi Y.N. Karaulov tasnifidagi birinchi darajaga mos keladi. Pragmatik darajada lisoniy shaxsning rivojlanishi, uning xulq-atvori, tilning ifoda imkoniyatlaridan kommunikativ muloqot jarayonida foydalanishi, nutq tuzishi, real voqelikni aks ettirishi va dunyoqarashining nutqida ifodalanishini ta'minlovchi motiv va maqsadlarni tavsiflash muhimdir. “Voqelikdagi predmet-hodisalarning idroki bir xilda kechmaydi. Turli shaxslar yagona bir voqelikka turlicha, o'z nuqtayi nazarlaridan qaraydilar, uni idrok etishda shaxsiy motivlariga ega bo'ladilar. Har bir shaxsning voqelikni baholash me'yori (o'lchovi) mavjud va bu “shaxsiy o'lchov” to'g'ridan to'g'ri nutqiy faoliyatda o'z aksini topadi” (11, 199). Quyidagi matnda Oychechak opaning nevarasi Sevinchning yo'qolib qolishi va topilishi bilan bog'liq voqealar tasvirida uning qarashlari, voqelikka munosabati ifodalangan. *Sevinch qizim, nuri diydami, seni dunyolarga alishmayman! Sen uchun mol-u davlatim nima bo'пти, shirin jonimni uzib berishga tayyorman! Ana, topilishingni Ollo-taolodan so'rab, azayimxonga bir ho'kiz-u, folbinga bir shoxdor qo'chqor atab keldim! Ikki qora ko'zingdan sadaqa!...— opa yana ikki nabirasini peshonasidan o'pdi* (4, 98).

Shu o'rinda Oychechak opa nevarasining ustida bo'lgan savdoda katta xatoga yo'l qo'rganini biladi, ammo buni tan olgisi, oila a'zolari oldida o'zining mavqeyini tushishini istamaydi. Buni quyidagi nutqda ham ko'rishimiz mumkin: *Ha, nima? O'sha ho'kiz bilan qo'chqor meni bittagina*

nevaramdan aziz bo'pqoptimi?...bo'sh kelmasa-da, juda katta ketib yuborganini endi o'zi ham sal-pal tushuna boshlagan Oychechak opa yuzini bola bilan to'sdi (4, 98)

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, asarda Oychechak opa lisoniy shaxsi turli ijtimoiy maqomdagi shaxslar — o'g'il, kelin, er, folbin, azayimxonlar bilan bo'lgan muloqotda ochiladi. Ona qaysi ijtimoiy maqomda bo'lsa ham uning o'ziga xos lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlagan lisoniy birliklar yozuvchi tomonidan topib qo'llanilgan. Shuning uchun o'zbek onalariga xos kuyunchaklik, ishonuvchanlik, soddalik, mehribonlik kabi fazilatlar til vositasida yorqin ifodalangan. O'zbek va ingliz tilidagi so'z-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlarini tadqiq qilgan Z. Karimova o'zbek ayollari nutqida modal so'z-gaplar, iboralar uchrashini, bu ular nutqiga yumshoqlik bag'ishlashini, bunday birliklar yoshi ulug' ayollar nutqida odatiy kalimalarga aylangan bo'lib, turli vaziyatlarda har qanday kishilarga nisbatan qo'llanilishini ta'kidlaydi (6, 51). Bunday gap-so'zlar Oychechak opa nutqida ham qo'llanilgan bo'lib, uning lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xosliklarini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xulosa

Oychechak opa lisoniy shaxsini sotsiopragmatik aspektda tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, asarda qahramon o'zini ona, qaynona va buvi sifatida anglaydi, oilasiga g'amxo'rlik qiladi, jamiyatda o'rnatilgan axloqiy, xatti-harakatlarning odatiy me'yorlariga rioya qilishga intiladi. O'zbek onalari kabi doimiy e'tiborda bo'lishni, farzandlar baxti uchun o'zi to'g'ri deb bilgan yo'ldan boshqalarning ham yurishini istaydi. Ammo asrlar davomida shakllangan qadriyatlarga muvofiq oxirgi qarorni erkaklar chiqarishiga qo'yib beradi. Ona lisoniy shaxsining voqelanishida qo'llanilgan lisoniy birliklar ifodaning sodd va tushunarli bo'lishini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova D.U. Badiiy matn sinergetikasi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild. — № 1 (54). — B. 39–59.
2. Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция гендерной языковой личности: Автореферат дисс. д-ра. филол. наук. — Барнаул, 2004. — 46 с.
3. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. — Тошкент: Akademnashr, 2013. — 176 б.
4. Ҳамдам Улуғбек. Ота. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. — 208 б.
5. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. — М.: Издательство ЛКИ, 2010. — 264 с.
6. Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари. Филол. фан бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. — Тошкент, 2021. — 140 б.
7. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Тошкент, 2017. — 176 б.
8. Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари: Филол. фан бўйича фалс. д-ри(PhD) ... дисс. — Қарши. — 133 б.

9. Ниязова Г. Детектив романлар тилининг социопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари. Филол. фан бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. — Тошкент, 2022. — 54 б.
10. Раупова Л. Диалогик дискурдаги полипредикатив birliklarнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри дисс... автореф. — Тошкент, 2012. — 49 б.
11. Сафаров Ш. Прагматингвистика. — Тошкент, 2008. — 318 б.
12. Umarova F. B. Ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 3 (44). — B.155–166.
13. Umurzoqova M.E. Lisoniy shaxs va uning shakllanishida ijtimoiy omilning o'rni // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 110–118.
14. Umurzoqova M. — URL: https://www.researchgate.net/publication/374842027_Lisoniy_shaxsni_belgilashning_gender_omili?
15. Хачмафова З. Женская языковая личность в художественном тексте (на материале русского и немецкого языков): Автореферат дисс. д-ра. филол. наук. — Ставрополь, 2011 — 45 с.
16. Yo'ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) dissertatsiyasi. — Qarshi, 2023. — 227 b.

References

1. Ashurova D.U. *Uzbekistonda khorizhii tillar*, 2024, volume 10, No 1 (54), pp. 39–59. (In Russian)
2. Fomin A.G. *Psikholingvistikacheskaya kontseptsiya gendernoi yazykovoi lichnosti* (Psycholinguistic concept of gender linguistic personality): Extended abstract of Doctor's thesis, Barnaul, 2004, 46 p. (In Russian)
3. Khakimov M. *Uzbek pragmatlingvistikasi asoslari* (Basics of Uzbek pragmatlinguistics), Tashkent: Akademnashr, 2013, 176 p. (In Uzbek)
4. Khamdam Ulugbek. *Ota* (Father), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2022, 208 p. (In Uzbek)
5. Karaulov Yu. N. *Russkii yazyk i yazykovaya lichnost'* (Russian language and linguistic personality), Moscow: Izdatel'stvo LKI, 2010, 264 p. (In Russian)
6. Karimova Z. *Uzbek va ingliz tillarida suz-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlari* (Sociopragmatic features of utterances in Uzbek and English languages): candidate's thesis, Tashkent, 2021, 140 p. (In Uzbek)
7. Makhmudov N. *Til tilsimi tadkiki* (Linguistic studies), Tashkent, 2017, 176 p. (In Uzbek)
8. Niyazova D. *Badiii matnda lisonii shaxs tiplari* (Linguistic personality types in the literary text): candidate's thesis, Karshi, 133 p. (In Uzbek)
9. Niyazova G. *Detektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari* (Sociopragmatic Aspect and Gender Features of Detective novel language): candidate's thesis, Tashkent, 2022, 54 p. (In Uzbek)
10. Raupova L. *Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadkiki* (Sociopragmatic study of polypredicative units in dialogical discourse), extended abstract of Doctor's thesis, Tashkent, 2012, 49 p. (In Uzbek)

11. Safarov Sh. *Pragmalingvistika* (Pragmalinguistics), Tashkent, 2008, 318 p. (In Uzbek)
12. Umarova F. B. *Uzbekistonda khorizhii tillar*, 2022, No 3 (44), pp.155–166. (In Uzbek)
13. Umurzokova M.E. *Uzbekistonda khorizhii tillar*, 2023, No 6 (53), pp. 110–118. (In Uzbek)
14. Umurzokova M. — URL: https://www.researchgate.net/publication/374842027_Lisoniy_shaxsni_belgilashning_gender_omili?
15. Khachmafova Z. *Zhenskaya yazykovaya lichnost' v khudozhenstvennom tekste (na materiale russkogo i nemetskogo yazykov)* (Female linguistic personality in a literary text (based on the material of the Russian and German languages)), extended abstract of Doctor's thesis, Stavropol', 2011, 45 p. (In Russian)
16. Iuldosheva Kh. *Badiii matnning sotsiopragsmatik tadkiki* (Sociopragmatic study of literary text), doctor's thesis, Karshi, 2023, 227 p. (In Uzbek)